

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA -MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
MAKTABGACHA TA'LIM FAKULTETI  
MAKTABGACHA TA'LIM KAFEDRASI  
5111800-MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI BITIRUVCHISI  
Abdullayeva Yulduz Qurbon qizining  
Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

"MOBIL MAKTABGACHA TA'LIM GURUHLARIDA TA'LIM JARAYONINI  
TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI "  
mavzusidagi

## BITIRUV MALAKAVIY ISHI

"Himoyaga ruxsat etilsin"

Fakultet dekani

M.T. Mirsoliyeva

14 2021 yil

"Himoyaga tavsiya etilsin"

Maktabgacha ta'lim texnologiyalari kafedra mudiri:

p.f.n., dotsent G.E.Djanpeisova

" " 2021 yil

Ilmiy rahbar:

P.f.d Professor

K.T.OLIMOV

Talaba: Q.Y. Abdullayeva

## MUNDARIJA

|                                                                                                                                          |           |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>Kirish.....</b>                                                                                                                       | <b>5</b>  |
| <b>I.BOB MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING MAZMUNI VA MOHIYATI.....</b>                                                                      | <b>6</b>  |
| 1.1. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining paydo bo'lishi hamda maqsad vazifalari .....                                            | 7         |
| 1.2. Maktabgacha ta'lim tizimining meyoriy huquqiy asoslari .....                                                                        | 13        |
| 1.3 O'zbekistonda maktabgacha mobil maktabgacha ta'lim guruhlarini tashkil etish.....                                                    | 29        |
| I. bob yuzasidan xulosa.....                                                                                                             | 40        |
| <b>II.BOB MOBIL MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI KO'RSATISH TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA TADBIRLARI.....</b>                      | <b>41</b> |
| 2.1 Mobil maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan hududlar.....                                                                 | 44        |
| 2.2 Maktabgacha ta'lim mobil guruhlarini jihozlash normativlari.....                                                                     | 47        |
| II. bob yuzasidan xulosa.....                                                                                                            | 49        |
| <b>III.BOB MOBIL GURUHLAR BAZASIDA MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI KO'RSATISH BO'YICHA TAJRIBA SINOV LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH.....</b> | <b>50</b> |
| 3.1 Pedagogik tajriba sinov natijalarining mohiyati.....                                                                                 | 50        |
| 3.2 Tajriba sinov natijalarining tahlili.....                                                                                            | 55        |
| III. bob bo'yicha xulosalar.....                                                                                                         | 56        |
| <b>UMUMIY XULOSA .....</b>                                                                                                               | <b>57</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                                                                           | <b>59</b> |

## Kirish

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Erta ta'lim-tarbiya insonning butun umri davomida farovon va baxtli hayot kechirishi uchun mustahkam asos bo'ladi. Shu bilan birga, erta ta'lim-tarbiya bolaning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini birlashtirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim pedagoglari har bir bola uchun maktabgacha ta'lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois ularga ko'nikmalarini rivojlantirish va xizmatlarini ko'rsatish uchun keng imkoniyat hamda yordam berilishi kerak.

O'zbekiston hukumati 2017 yildan beri maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasini yuqori sifatga olib chiqishga ustuvor ahamiyat qaratayapti. Shunga ko'ra, 2018 yil 20 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat o'zida 16 ta maqsad va 225 ta vazifani qamrab olgan bo'lib, Yurtboshimiz tashabbusi bilan qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi"ga to'liq hamohangdir.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi,

faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: "Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz", - deb ta'kidlagan edi.

Jumladan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar asosiy o'rinni egallaydi.

Zero aynan ta'lim tizimi sifatining yuqori darajaga ko'tarilishi va jahon miqyosida tan olinishi, bu hozirgi o'sib kelayotgan avlodni hozir qanday ta'lim va tarbiya olayotganiga bog'li bo'ladi. Bu ta'lim tizimining eng birinchi bo'g'ini maktabgacha ta'lim tizimiga juda katta talablarni yuklaydi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Shu nuqtai nazaridan mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimining holati va uni rivojlantirish chora-tadbirlari hamda mobil maktabgacha ta'lim guruhlarini tashkil etish yuzasidan olib borilgan tahlillarga asoslanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** O'zbekistonda mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha joriy holati va uni rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etish.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** O'zbekistonda mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etish.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti:** Ushbu tizimni o'rganish va rivojlantirishdagi jarayonlar.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari :**

1. O'zbekistonda mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish .
2. Ushbu tizimni o'rganish orqali undagi muammolarni tahlil qilish.

3. Tizimni rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning amaliy xususiyatini yoritish.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi:** Mavzu yuzasidan mobil maktabgacha ta'lim tizimining joriy holati ilmiy va amaliy jihatdan o'rganildi.

Ushbu mavzu o'rganilganligi natijasida mobil maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish borasida bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Bitiruv malakaviy ishining metodlari:** Mobil maktabgacha ta'lim guruhlarida ta'lim jarayonini tashkil etish metodikasi.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi:** Maktabgacha ta'limga oid ilmiy adabiyotlar, Prezidentimiz tomonidan ta'lim tizimiga oid chora-tadbirlari va ularning mazmun mohiyati va boshqa manbalar mazmunidan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati:** Mobil maktabgacha ta'lim guruhlarida ta'lim jarayonini tashkil etish metodikasini rivojlantirishdagi kelajak tadbirlar hamda amalda bajarilayotgan ishlar mazmuni bayon etiladi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.** BMI uch bob, yetti reja, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

---

## **I. BOB MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING MAZMUN VA MOHIYATI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rin tutadi" deya ta'kidlaydi.

Respublika Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda, 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risida"gi nizomi maktabgacha ta'limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta'limga bola qamrovini oshirish va sohaga ilg'or xorij tajribalarini tadbiq qilish imkononi beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturi asosida rejalashtiriladi.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish faoliyatining yaxlit rivojlanish tizimini yaratish va atrofimizdagi dunyoni tubdan idrok etish imkonini beradigan tizimli integratsiya jarayonini ta'minlash maktabgacha ta'lim tizimidagi har bir pedagogning vazifasidir. Maktabgacha ta'lim tizimi ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

### **1.1 O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining paydo bo'lishi va maqsad, vazifalari**

O'zbekistonda maktabgacha ta'limning paydo bo'lishi XIX asrning 80-90-yillariga borib taqaladi.

1872-yilda Turkistonda "Jamiyati xayriya" tarkibi tuzilib, "Jamiyati xayriya" tashkiloti tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, tug'ruq joylari bilan bir qatorda ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonalar tashkil etilgan.

1896-yilda Turkistonda vositalar kengashi kambag'allarning bolalari uchun "yasla"lar deb ataladigan muassasalarni tuzatib boshladi. Yaslilarga atak-chechak qila boshlagan bolalar qabul qilingan va maktabga ketgunga qadar tarbiyalangan, bolalar kun bo'yi yaslada bo'lishar va uch marta ovqatlantirilar edi. Yasla ishlarini nazoratchi ayol boshqargan, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Turkistonda kambag'allarning bolalari uchun Toshkentda, Samarqand, Sirdaryo, Namanganda yetimxonalar tashkil etilgan.

Imtiyozli sinflarning bolalari uchun 1891-yilda "Bog'dorchilik" jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun "Bolalar maydonchasi xilida" birinchi bolalar bog'chalari ochildi. 1891—1903-yillar davomida mablag' yo'qligi sababli bog'cha bir necha marta yopilgan.

Sirdaryo, Samarqand, Toshkent shahrida bolalar bog'chalari kabi ayrim bog'chalar yuzaga keldi. 1909-1910 yillarda va keyinchalik xususiy bog'chalar paydo bo'ldi, bu bog'chalarda 6 yoshdan boshlab bolalarni asosan gimnaziya o'qishga tayyorlashar edi. Bunday bolalar bog'chalari xususiy uylarda ochilar va tamomila ota-onalar ta'minotida bo'lgan. Ma'lumotga ega bo'lgan va chet tillarni biladigan o'qimishli xonimlar tarbiyachi edilar. Ammo mazkur bolalar bog'chalari faqat badavlat ota-onalarning ehtiyojini qondirgan edi. Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog'chalari faqat 1917-yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etildi.

Turkistonda dastlabki davlat bolalar bog'chalari 1918-yilning ikkinchi yarmida tashkil etila boshlandi. 1918-yil 20-oktyabrda Turkiston Maorifi Xalq Komissarligi qoshida Respublikadagi maktabgacha tarbiya sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun ma'muriy organ sifatida maktabgacha tarbiya bo'limi tashkil qilindi. Xuddi shu yilda viloyat xalq maorifi bo'limlarining qoshida maktabgacha tarbiya kichik bo'limlari tashkil qilingan.

"Maktabgacha tarbiya bo'limi to'g'risi"dagi Nizom qabul qilindi va unda bo'lim 3 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiya muassasalariga boshchilik qiladi, mavjud muassasalar ishining borishini kuzatadi, yangi bolalar bog'chalari, yaslilar, bolalar uylari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun umumiy yotoqxonalar, bolalar yozgi koloniyalari ochildi, bolalar bog'chalari rahbarlari, enagalar va kadrlar tayyorlash maqsadli kurslari tashkil qilindi, deyiladi.

1918-yilda Toshkentning sobiq eski shahar qismida o'zbek bolalari uchun 4 ta bog'cha ochishga muvaffaq bo'lindi.

Birichi bog'cha - Shayxontohur dahasida Hasanova mudiri: Mahsuma Qorieva va Robiya Abdurashidova (tarbiyachi) faoliyat ko'rsatgan.

Ikkinchi bog'cha - Xo'ja ko'chasida Anvar Yausheva mudiri bo'lgan.

Uchinchi bog'cha - Ko'kcha dahasidagi Langar ko'chada ochilgan.

To'rtinchi bog'cha - Beshyog'och dahasida ochilgan bo'lib, bunda tarbiyachi Qodirxonov mudirlik qilar edi.

1920 yilda Turkiston Respublikasida 71 ta bolalar bog'chasi, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 16 ta bog'cha va 12 ta bolalar maydonlari tashkil etilib, bulardan 4 tasida o'zbek va boshqa mahalliy millatlarning bolalari tarbiyalana boshlandi. O'sha davrda maktabgacha tarbiya muassasalarida hammasi bo'lib 6394 bola tarbiyalanar edi. 1921-yilga kelib bolalar bog'chalarining soni 105 taga, shu jumladan, mahalliy millatlarning bolalari uchun bog'chalar 32 taga yetdi. Bolalar bog'chalarida tarbiyalanuvchilarning soni qariyb 8000 kishiga yetdi, ulardan 2000 dan ko'prog'i millatlarning farzandlari edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda bolalar bog'chalari va bolalar maydonchalarining tarmog'i deyarli ikki barobar kengaydi.

1994-yil 1-yanvariga kelib 54 ming bola tarbiyalandi, davlat tamonidan 77 million so'm ajratildi. Bu yillarda O'zbekistonning bolalar bog'chalarida ko'chirib keltirilgan 16000 dan ko'proq bolalar tarbiyalandi. Shuningdek, ota-onasiz qolgan qariyb 400 bola vasiylikka olish prinsipiga muvofiq boqib, tarbiyalab katta qilindi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti rahbarligida davlat va jamiyat hayotini, jumladan, ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Istiqlolning dastlabki yillaridayoq Birinchi Prezidentimiz kadrlar tayyorlashning zamonaviy yagona tizimini yaratish g'oyasini ilgari surib: "Ta'lim berishning ma'naviy, axloqiy va kasb malakasi bo'yicha tarbiyalashning mutlaqo yangi tizimi ishlab chiqilishi zarur. Sifat jihatidan butunlay yangi o'quv dars turlari yaratilishi darkor", deya ta'kidlagan edi. Birinchi Prezidentimizning ushbu fikrlari keyinchalik ta'lim-tarbiya sohasiga oid ko'plab qonunlarning, tegishli me'yoriy hujjatlarning, eng muhimi, butun dunyo jamoatchiligi tomonidan tan olingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishiga metodologik asos sifatida xizmat qildi. Ushbu dasturda maktabgacha va maktab, o'rta maxsus

va kasb-hunar hamda oliy ta'limni uch bosqichda isloh qilishni, besh bosqichli ta'lim tizimini yaratish ko'zda tutilgan edi.

Bu boradagi milliy dastur konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan 1997-yil Oliy Majlisning IX sessiyasida “Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” nomli ma’ruzasida asoslab berildi. Unga binoan, mamlakatimizda noyob, dunyoda o'xshashi yo'q uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi.

Uzluksiz ta'lim - yuksak malakali kadrlar tayyorlashning asosini tashkil etib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish mazmun-mohiyatini ifoda etadi.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ta'limning ustuvorligi - uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;
- ta'limning demokratlashuvi - ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;
- ta'limning insonparvarlashuvi - inson qobiliyatlarining aniqlanishi va rivojlanishuvi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;
- ta'limning ijtimoiylashuvi - ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi - ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilish;
- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun zarur sharoit yaratish.
- Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini sifatida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tashkil etiladi.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasasi maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari,

ta'lim-tarbiya dasturlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarda (keyingi o'rinlarda bolalar deb ataladi) jismoniy rivojlanish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena, ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish, nutq, o'qish va chet tillarni o'rganish, bilish jarayoni, dunyo haqidagi bilimlar va dunyoni anglashi, ijodiy-estetik rivojlanishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi.

### **Davlat maktabgacha ta'lim muassasasining maqsadi va vazifalari.**

- Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lim muassasasining maqsadi hisoblanadi:
- bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish;
- ta'lim-tarbiya berish orqali bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash;
- bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish.

Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lim muassasasining vazifalari hisoblanadi:

- bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;
- bolalarda xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analarga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish;
- bolaning shaxsini va boshqa jihatlarini rivojlantirgan holda uni boshlang'ich ta'limni olishga tayyorlash;
- bolaning rivojlanishidagi (nutqida, ko'rishida, eshitishida) yengil nuqsonlarni korreksiyalashni amalga oshirish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish.

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlari bilan mustahkam aloqa va uzviy bog'liqlikda olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» degan qoida mustahkamlab qo'yilgan, 45-moddasida voyaga yetmaganlar davlat himoyasida ekani, 64-moddasida esa «Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi», deb qayd etilgan.

### **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI**

O'z nizomida nazarda tutilgan funksiyalarning bajarilmagani uchun mas'uldir.

Ta'lim dasturining to'liq hajmda bajarilmagani, amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlarining sifati uchun mas'uldir.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda qo'llanilayotgan shakllar, metodlar va vositalar bolalarning yosh, ruhiy-fiziologik xususiyatlari, qobiliyati, layoqati, qiziqishlari va ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlashga mas'uldir.

Muassasada tarbiyalanayotgan bolalarning ta'lim jarayonida hayoti va sog'ligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi ana shu huquqiy asoslarga tayangan holda oila va jamiyatning bolalarga g'amxo'rlik qilish, milliy va mintaqaviy xususiyatlarni e'tiborga olib, ularni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash maqsadida tashkil etiladi.

### **Maktabgacha ta'limning ustuvor vazifalari**

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish zarur:

- yuqori malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini yaratish va amaliyotga joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashning tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqdar va o'yinlar yaratish hamda ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish;
- bolalarni xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarining har xil turlari uchun muqobil dasturlarni tanlab olish, barcha masalalar bo'yicha malakali maslahat ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha ta'lim va sog'lomlashtirish muassasalari;
- tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

## **1.2. Maktabgacha ta'lim tizimining meyoriy huquqiy asoslari**

Bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimidagi muammolar o'rganilmoqda va ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida Yurtboshimiz tomonidan qarorlar, farmonlar va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ushbu dasturlarning asosiy maqsadi tizimni qayta isloh qilishdan iborat, shu o'rinda Prezidentimiz tomonidan 2016-yil 29-dekabrda PQ 2707-sonli qarori bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining ahamiyati juda kattadir.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlarda inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi keltirilgan. Darhaqiqat bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z tilini o'zlashtiradi, ota-ona, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi.

Shu ma'noda Prezidentimizning ushbu qarori, maktabgacha tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilishi shubhasiz.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi.

Dastur asosida quyidagi keng ko'lamlı kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilgʻor xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-sharoitlar yaratish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish;

- 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun jami 2.2 trillion so'm mablag' ajratilishi ko'zda tutilmoqda.

Qaror bilan belgilangan kompleks tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida quyidagilarga erishiladi:

- yuqori sifatli maktabgacha ta'limni ta'minlash, bolalarni sifatli maktabga tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga muqobil dasturlarni joriy etishga;

- bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo'lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etishga;

- 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlashni tashkil etishga;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini 50 ta yangi qurilish hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish va 983 tasini mukammal ta'mirlash orqali kengaytirishga;

- qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar badal to'lovini 30 foizgacha kamaytirishga;

- bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 1,5 barobar oshirishga.

Dasturning samarali amalga oshirilishi unda ko'zda tutilgan ko'rsatkichlar ijrosining borishini tizimli monitoring qilib borish orqali davlat organlarining doimiy nazoratida bo'ladi.

Qarorning amalga oshirilishi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida respublikamizning uzluksiz ta'lim tizimini yanada isloh qilish borasidagi rivojlanish yo'lining uzviy va bosqichma-bosqichligini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son" 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrda 929- son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risida"gi nizomi va “Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida”gi qaroriga asosan Davlat talablari qabul qilindi

Davlat talablari O'zbekiston Respublikasi hududida mulkchilik shakli va idoraviy tasarrufidan qat'iy nazar, quyidagi ta'lim muassasalarida qo'llaniladi:

- davlat maktabgacha ta'lim muassasalari;
- nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari;
- maktabgacha yoshdagi guruhlar mavjud bo'lgan "Mehribonlik" uylari.
- maktabgacha ta'lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o'rta maxsus kasb-hunar va oliy

ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim turlari bo'yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshirish muassasalarida xodim va rahbarlar Davlat talablariga rioya qilishlari lozim.

Davlat talablarining maqsadi - mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy information kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Davlat talablarining asosiy vazifalari:

-maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'limtarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

-milliy umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

-ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

-kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

Davlat talablarining tamoyillari:

- bolaning noyoblighi;

- "Men" konsepsiyasi va shaxsiy ta'limini yaratishda bolaning faol roli;
  - bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi;
  - bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;
  - bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi
- sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashuv.

Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalar:

- Maktabgacha ta'lim - maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishlari.
- Individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, ma'naviy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon:
- rivojlanish inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof-muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar:
- rivojlanish sohasi - bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar: kichik soha - sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarni kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan va kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan iborat.

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish

I. "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi quyidagi kichik sohachalarga bo'linadi:

- Yirik motorikani rivojlantirish;

- Mayda motorikani rivojlantirish;
- Sensomotorikani rivojlantirish;
- Sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik.

## II. "Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi quyidagi kichik sohalari”

- "Men" konsepsiyasi;
- hissiyotlar va ularni boshqarish;
- ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

## III. "Nutq. Muloqot, o'qish va yozish malakalari” sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi;

- nutq va til;
- o'qish malakalari;
- qo'l barmoqlari mayda motorikasi.

## IV. "Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasi qo'yiladi kichik sohalarga bo'linadi;

- intellektual-anglash malakalari;
- elementar matematik malakalar:
- tarkibiy va samarali refleksiv faoliyat

## V. "Ijodiy rivojlanish” soha quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- dunyoni badiiy tasavvur etish;
- badiiy - ijodiy qobiliyatlar

Davlat talablari Vazirlar Mahkamasi qoshidagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Sog'liqni saqlash vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston standartlashtirish metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi va “Oila” Respublika ilmiy-amaliy markazi bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, bunda maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan talablar har bir uchun belgilab o'tilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohatlarning yana biri "Maktabgacha ta'lim vazirlig'ning tashkil topishi bo'ldi.

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi

- Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qaroriga muvofiq: maktabgacha

ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, bolalarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalashning barcha jihati belgilab berildi.

Xususan, farmonda qayd etilganidek, mamlakatimizda so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayganligi, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil qilganligi ta'kidlangan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi ham zamonaviy talablarga deyarli javob bermaydi.

Qolaversa, hududlarda maktabgacha ta'lim muassasalarida ko'proq o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar faoliyat yuritayotgani bois maktabga tayyorlov guruhlarida mashg'ulotlar yetarlicha o'tilmayotgani, ko'plab bog'chalar binolari talabga javob bermasligi, ayniqsa, bolalar qamrovi tumanlar kesimida olinganda, 18 - 20 foizni tashkil etishi hech kimga sir emas.

Mazkur hujjatda sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqish, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalardan keng foydalanish, ularga shart-sharoitlar yaratish, bolalar qamrovini bosqichma-bosqich kengaytirish, yosh avlodda kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, ularning sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini tashkil qilish, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish kabi juda dolzarb masalalar qamrab olingan.

Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar hamda pedagog xodimlarining malakasini oshirish, qayta tayyorlash ham o'ta muhim masalalar sifatida ko'rsatilgani, ayniqsa, e'tiborga molik.

Vazirlik zimmasiga bir qator vazifalar yuklatildi.

Vazirlikning asosiy vazifalari va faoliyati maktabgacha tarbiya:

1. Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalda amalga oshirish;

2. Bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

3. Respublikada raqobatdosh davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini yaratish, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish, byudjetdan subsidiyalar ajratish orqali bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olish;

4. Zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari va usullarini, shu jumladan xususiy sektorni o'quv jarayoniga joriy etish;

5. Maktabgacha tarbiya muassasalarini milliy madaniy va tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otadigan o'quv, uslubiy, didaktik materiallar, o'quv o'yinlari va o'yinchoqlari, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash;

6. Rahbarlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish va bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini yuqori kasbiy darajada hal qilishga qodir zamonaviy pedagogik texnologiyalar usullar asosida maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy pedagogik xodimlari tizimini yaratish;

7. Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va o'quv jarayoniga jalb qilish;

8. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga bolalarni saqlash uchun munosib sharoitlar, shu jumladan to'liq, oqilona, muvozanatli, sog'lom ovqatlanish, ochiq havoda o'yinlar va mashqlarni hajm va intensivlikda ta'minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish. ko'ngilochar va ma'rifiy tadbirlar elementlari bilan oqilona tibbiy retseptlar bilan belgilanadi;

9. Bolalarga tibbiy yordam ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan muvofiqlashtirish va ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika choralarini ko'rish.

Maktabgacha ta'lim vazirligi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash sohasida:

- fuqarolarning maktabgacha ta'limdan foydalanishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi;

- maktabgacha ta'lim muassasalari bazasida bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha har xil muqobil modellarni ishlab chiqadi;

- maktabgacha ta'lim tizimi faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining dolzarb va istiqbolli ehtiyojlari tahlil qilinishini tashkil etadi;

- maktabgacha ta'limning amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlari va umumta'lim maktablarining 1-sinfi dasturi uzviyligini amalga oshirish masalalarida idoraviy mansub muassasalarga rahbarlik qiladi;

- raqobatlashuvchi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha aniq choratadbirlarni amalga oshiradi;

- maktabgacha ta'lim tizimiga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi amaldagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash masalalarida ko'maklashadi;

- konferensiyalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni, shu jumladan, xalqaro tadbirlarni tashkil etish orqali maktabgacha ta'lim sohasida mamlakatimiz yutuqlarini keng targ'ib qiladi;

- bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga jalb etish ko'lamlarini kengaytirish maqsadida aholi orasida axborot targ'ibotini amalga oshiradi, shu jumladan, ruhiy-pedagogik ma'rifat bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

- bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha moslashuvchan, muqobil modellarni rivojlantirish maqsadida hududiy boshqaruv organlarida, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida prognozlashtirish bo'yicha axborot-tahlil ishlari o'tkazilishini ta'minlaydi;

- davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirish masalalarida manfaatdor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

- nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha fuqarolarga va tadbirkorlik subyektlariga metodik yordam beradi.

21.11.2017-yil Vazirlar Mahkamasining 929-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligi To'g'risiagi Nizomni hamda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida"

qaroriga muvofiq tasdiqlangan Nizom 11 bobdan iborat bo'lib unda Vazirlikning tizimi, funksiyalari, vazifalari, hududiy bo'limlarning huquqlari va majburiyatlari hamda vazirlik rahbarlarining vazifalar, vazirlik faoliyatini tashkil etish, ular faoliyatining samaradorlik darajasini baholash mezonlari va moliyalashtirish jihatlariga to'xtalib o'tilgan.

Vazirlar Mahkamasining 19.07.2017-yil 528-sonli "Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorda nutqida, eshitishida, ko'rishida yengil nuqsoni bo'lgan bolalarga xizmat ko'rsatish uchun defektolog shart birligi joriy etilishi hamda ushbu soha xodimlarining maoshi 100 foizga oshirilishi haqida to'xtalib o'tilgan.

Yutboshimiz tominidan 30.09.2018-yil PQ-3955sonli qarori "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining mazmuni:

Maktabgacha ta'lim Vazirligining tashkiliy tuzilmasi, markaziy apparati hamda 2018-2019 yillarda mazkur tizimni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi haqida fikr yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.05.2019-yil 395-son qarori asosida "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi nizom" tasdiqlangan. Ushbu hujjatda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarli, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilangan.

Mazkur nizom 14- bobdan iborat bo'lib ular quyidagilar:

1-bob. Umumiy qoidalar;

2-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadlari va vazifalari;

3-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi;

4-bob. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash;

5-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi;

6-bob. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish;

7-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish va undan chiqarish;

8-bob. Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirish;

9-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ovqatlanishni tashkil etish;

10-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar sog'lig'ini asrash;

11-bob. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini moliyalashtirish;

12-bob. Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotida saqlash uchun ota-onalar to'lovi;

13-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish.

Shuningdek, 2019-yil 16-dekabrda «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

Qonun bilan, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga doir davlat kafolatlari aniq belgilab berildi.

Xususan, davlat har bir bolaning umumiy o'rta ta'lim tashkilotiga o'qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta ta'limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o'tishga bo'lgan huquqini kafolatlaydi.

Qonunga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat va nodavlat tashkiloti bo'lishi mumkin.

Ushbu qonun 11 bob va 58 moddadan iborat.

**1-bob.** Umumiy qoidalar;

**2-bob.** Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasini tartibga solish;

**3-bob.** Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari;

**4-bob.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish;

**5-bob.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;

**6-bob.** Maktabgacha bo'lgan yosh davrlari. Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish va ulardan chiqarish;

**7-bob.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ularning huquq va majburiyatlari;

**8-bob.** Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni ijtimoiy himoya qilish;

**9-bob.** Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi;

**10-bob.** Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta'minoti. Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlash vazifalari;

**11-bob.** Yakunlovchi qoidalar.

Qonunga ko'ra, Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- har bir bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash;
- bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaga to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko'rsatish;
- bolalarning, shu jumladan alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish;

- maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

- ta'lim berishning muqobil shakllari;

- maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari va ta'lim tashkilotlari;

- maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlar.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi bolani to'laqonli har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi:

- bolaning bilim jihatidan va intellektual rivojlanishini;

- bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlikni;

- bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, O'zbekiston Respublikasida yashovchi millatlar va elatlarning urf-odatlarini va an'analarini bilan tanishtirishni;

- bolaning ijtimoiy moslashuvini;

- alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan pedagogik-tuzatish (korreksiyalash) va tibbiy-psixologik ishlar amalga oshirilishini;

- bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashni ta'minlashi kerak;

- Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarini tuzatishga (korreksiyalashga) hamda rehabilitatsiya qilishga muhtoj bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishi maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan yakka tartibdagi rejalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Yuqoridagi qaror, dastur va loyihalar ta'lim tizimining eng boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish va moderinizatsiyalash yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarning isbotidir.

Hukumatimiz tomonidan 22.12.2020-y 802-sonli qaroriga asosan ishlab "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti" mazkur soha rivoji uchun amalga oshirilayotgan ulkan ishlarning amaliy o'ziga xosligi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hujjat 7-bobdan iborat:

## **1-bob. Umumiy qoidalar**

Ushbu Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti (keyingi o'rinlarda — davlat standarti) davlat standartining maqsadi va asosiy vazifalarini, prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat standartlarini joriy etish hamda uning talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

Davlat standartini amalga oshirishda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berish sohasidagi o'quv-metodik qo'llanmalarni, metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish, qurish, jihozlash va ularning faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

## **2-bob. Davlat standartining maqsadi va asosiy vazifalari**

Davlat standartining maqsadi — maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.

Davlat standartining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'limning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga bo'lgan sanitariya-gigiyenik talablarni belgilash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish me'yorlarini tartibga solish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, rehabilitatsion vositalar bilan jihozlash;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini ta'minlash.

### **3-bob. Davlat standartining asosiy prinsiplari**

Davlat standartining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;
- har bir bolaning, shu jumladan, jismoniy yoki psixik rivojlanishida •nuqsoni bo'lgan bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqini amalga oshirish imkoniyatining tengligi;
- davlat standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga mosligi;
  - maktabgacha ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;
  - maktabgacha ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;
  - maktabgacha ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;
  - xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

### **4-bob. Davlat standartining tarkibiy qismlari**

Davlat standartining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar to'plami, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, rehabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me'yorlari;
- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishdagi gigiyenik talablar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qurilish-loyihalash ishlari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablar tegishli qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

-Maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasi (keyingi o'rinlarda — namunaviy o'quv reja) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarning nomi, eng kam (minimal) hajmi va ularning yoshi bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

-Namunaviy o'quv reja maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

## **5-bob. Davlat standartini joriy etish**

-O‘zbekiston Respublikasida davlat standartini joriy etish, muvofiqlashtirish, unga metodik rahbarlik qilish O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

-Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

## **6-bob. Davlat standarti talablariga rioya etilishini nazorat qilish**

- Davlat standarti talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi — davlat standartida belgilangan talablarni bajarish darajasini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish asosida ta’lim-tarbiya sifatini ta’minlashdan iborat.

-Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida davlat standarti talablariga rioya etilishi ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan quyidagicha amalga oshiriladi:

ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari ijrosi;

maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat o‘quv dasturining bajarilishi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to‘laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga bo‘lgan gigiyenik talablarga rioya etilishi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurishda idoraviy qurilish me‘yorlariga rioya etilishi;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar to‘plami, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlash;

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlashga qo‘yiladigan talablariga rioya etilishini tahlil qilish

- Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat:

**ichki nazorat** — davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari hamda maktabgacha ta’limni boshqarish bo‘yicha yuqori turuvchi tuman (shahar) maktabgacha ta’lim bo‘limlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha ta’lim boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi;

**tashqi nazorat** — qonun hujjatlarida belgilangan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi;

**jamoatchilik nazorati** — mahalla va qishloq fuqarolar yig'inlarida tashkil etiladigan jamoatchilik komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

**milliy va xalqaro darajada baholash** — hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar talablari asosida maktabgacha ta'lim boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar, jumladan, xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

## **7-bob. Yakunlovchi qoida**

Davlat standarti talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Yuqorida keltirilgan qonun hujjati mazkur tizim doirasida amalga oshirilayotgan rivojlantirish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

### **1.3 O'zbekistonda mobil maktabgacha ta'lim guruhlarini tashkil etish**

#### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING**

#### **QARORI**

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini kengaytirish, aholiga maktabgacha ta'lim xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish, shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning yangi innovatsion muqobil shakllarini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining:

2019-2020 o‘quv yilidan boshlab, mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasini mazkur qarorga 1-ilovaga muvofiq ro‘yxat bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi va respublika viloyatlari tumanlarida amalga oshirish;

mobil guruhlarini zamonaviy talablarga javob beradigan va qayta jihozlangan ISUZU NC 40 avtobuslarida tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasini (keyingi o‘rinlarda tajriba-sinov loyihasi deb ataladi) amalga oshirishda asosiy vazifalari etib belgilansin:

mobil guruhlarini maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalardan shakllantirish;

mobil guruhlardagi ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

mobil guruhlarini o‘quv-uslubiy, didaktik materiallari, rivojlantiruvchi o‘yin va o‘yinchoqlar, milliy madaniy-tarixiy boyliklarni aks ettiradigan hamda bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni oshiradigan badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash;

ilg‘or xorijiy tajriba inobatga olingan holda, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalarning har tomonlama yetuk, intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

maktabgacha ta’lim muassasalariga bormaydigan bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash va ularni boshlang‘ich ta’limga tayyorlash;

ota-onalarga bolalarning ilk rivojlanishi, ularga ta’lim-tarbiya berish masalasida maslahat va uslubiy yordam ko‘rsatish;

maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini rivojlantirish.

3. Belgilab qo‘yilsinki, mobil guruhlar maktabgacha ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi (bir haftada 7,5 soatdan kam bo‘lmagan ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etgan holda).

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi bir hafta muddatda:

mobil guruhlarining ta’lim berish va o‘yin faoliyati maydonchalarini tashkil etish uchun yer maydonlari ajratilishi va tayyorlanishi, zarur bo‘lganda sanitariya qoidalari va normalari, gigiyena normativlari talablariga muvofiq yangi bolalar o‘yin maydonchalarini qurish yoki mavjudlarini kapital ta’mirlash to‘g‘risida takliflar kiritilishini;

mobil guruhlarining ta’lim berish va o‘yin faoliyati maydonchalarini tashkil qilish uchun marshrut va turargohlar joylashgan joyni ko‘rsatgan holda, mobil guruhlar ro‘yxati shakllantirilishini;

mobil guruhlarini o‘quv-uslubiy, didaktik materiallar, badiiy adabiyotlar, rivojlantiruvchi o‘yin va o‘yinchoqlar bilan ta’minlasin.

5. Quyidagilar:

Maktabgacha ta’lim mobil guruhlar faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ildovaga muvofiq;

Maktabgacha ta’lim mobil guruhlarini jihozlash normativlari 3-ildovaga muvofiq;

Mobil guruhlarining ta’lim berish va o‘yin faoliyati maydonchalarini jihozlash normativlari 4-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Belgilab qo‘yilsinki, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-martdagi 244-son qarori bilan tasdiqlangan Bolalarni davlat maktabgacha ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti bolalarni maktabgacha ta’lim mobil guruhlariga qabul qilishga tatbiq etilmaydi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi bir oy muddatda mobil guruhlarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlansin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan birgalikda mobil guruhlarining ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini tizimli nazorat qilish va faoliyatini tashkil qilish monitoringini amalga oshirsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetini shakllantirishda tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur mablag‘lar mazkur qaror doirasida ajratilishini nazarda tutsin;

kiritiladigan qo‘shimcha shtat birliklari va mobil guruhlarini saqlash hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining 2019-yilgi xarajatlar parametrlariga zarur o‘zgartirishlar kiritsin;

bir oy muddatda mobil guruhlar biriktirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining namunali shtatlar jadvaliga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritsin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan birgalikda tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish yakunlari bo‘yicha mobil guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning bo‘lishini tashkil etishni hisobga olgan holda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim muassasalarini saqlash, joylashtirish hamda ish rejimini tashkil qilish yuzasidan tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qayta jihozlangan ISUZU NC 40 avtobuslari bepul rasmiylashtirilishi, ro‘yxatdan o‘tkazilishi, ularga davlat raqami belgilari ajratilishi, shuningdek, ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tartib-taomillar amalga oshirilishini ta’minlasin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish natijalari bo‘yicha 2020-yil 1-sentabrga qadar tahlil o‘tkazib, mazkur loyihani amalga oshirishni davom ettirish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga asoslangan takliflar kiritsin.

13. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.A. Abduxakimov va O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vaziri A.V. Shin zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

**“Maktabgacha ta’lim mobil guruhlar faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi  
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom maktabgacha ta’lim mobil guruhlar (keyingi o‘rinlarda mobil guruhlar deb ataladi) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Mobil guruhlar bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalariga bormaydigan bolalarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish maqsadida tashkil etiladi.

3. Quyidagilar mobil guruhlarning asosiy vazifalari hisoblanadi: ilg'or xorijiy tajriba inobatga olingan holda, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalarning har tomonlama yetuk, intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning sog'ligini muhofaza qilish va mustahkamlash;

bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;

ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari va uslublarini joriy etish;

bola shaxsining asoslarini shakllantirish, uning bilim orttirish bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish;

maktabgacha ta'lim muassasalariga bormaydigan bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlash;

ota-onalarga bolalarning ilk rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish masalasida maslahat va uslubiy yordam ko'rsatish.

2-bob. Mobil guruhlarni tashkil etish tartibi

4. Mobil guruhlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari tomonidan hududlar ehtiyojlarini o'rganish yakunlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda tashkil etiladi.

5. Mobil guruhlar zamonaviy talablarga javob beradigan va qayta jihozlangan avtobuslar bazasida tashkil etiladi.

6. Mobil guruhlarda ta'lim-tarbiyani tashkil etish uchun sanitariya normalari va qoidalari hamda gigiyena normativlariga muvofiq faqat fanlarni rivojlantiruvchi muhit va o'yin faoliyatini tashkil etish maqsadida foydalaniladigan yer maydonlari ajratiladi.

7. Qayta jihozlangan avtobusning ichki qismi unda bolalar o'zini qulay his etishiga, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bo'lishi zarur.

8. Mobil guruhlar davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga tegishli tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlarining buyrug'iga asosan biriktiriladi.

9. Mobil guruhlarda faoliyat ko'rsatadigan tarbiyachi, tarbiyachining yordamchisi va haydovchi tegishli davlat maktabgacha ta'lim muassasasi rahbariga hisobot beradi.

10. Mobil guruhlar xodimlari mobil guruhlar biriktirilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasasining shtatida hisobda turadi.

11. Mobil guruhlar xodimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda har yili tibbiy ko'rikdan o'tadi.

3-bob. Mobil guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish

12. Mobil guruhlarga maktabgacha ta'lim muassasalariga bormaydigan 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

13. Mobil guruhlarga bolalar bo'sh o'rinlar mavjud bo'lgan taqdirda, ota-onalarning (qonuniy vakillarning) arizasi va bolaning salomatligi to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma asosida qabul qilinadi.

14. Ota-onaning (qonuniy vakilning) arizasiga quyidagi xujjatlar ilova qilinadi:

ota-onaning (qonuniy vakilning) fuqarolik pasporti nusxasi;

bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi;

bolaning 2 dona fotosurati;

bolaning salomatligi to'g'risida tibbiy xulosa.

15. Bolalar mobil guruhlarga ushbu mobil guruhlar biriktirilgan davlat maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i asosida qabul qilinadi.

16. Bolalarni bir guruhdan ikkinchi guruhga o'quv yili davomida ota-onalarning (qonuniy vakillarning) arizasi asosida bo'sh o'rin bo'lgan taqdirda o'tkaziladi.

17. Tibbiy salbiy ko'rsatmalar va bo'sh o'rin bo'lmasligi bolani mobil guruhga qabul qilish to'g'risidagi arizani rad etish uchun asos bo'ladi.

18. Mobil guruhlarda davlat maktabgacha ta'lim xizmatlari bepul ko'rsatiladi.

19. Mobil guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari asosida tashkil etiladi va ovqatlantirishni majburiy tashkil etmagan holda, bir haftada 7,5 soatdan (bir kunda 3-4 soat) kam bo'lmagan ta'lim berish nazar tutiladi.

20. Mobil guruhlar ta'lim faoliyatini 2 smenada, bir haftada 6 kun amalga oshiradi.

21. Mobil guruhlarda o'quv yili 2-sentabrdan boshlanib 31-mayda yakunlanadi, yozgi sog'lomlashtirish davri 1-iyundan 31-avgustga qadar hisoblanadi.

22. Guruhlar bir xil yoki aralash yosh prinsipi bo'yicha to'ldiriladi.

23. Bir guruhda bolalar soni 16 nafardan ortiq bo'lmasligi lozim.

24. Maktabgacha ta'lim muassasalariga bormaydigan alohida extiyojga ega bo'lgan bolalar mobil guruhlarda tibbiy salbiy ko'rsatmalar bo'lmaganda ta'lim olishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan mezonlarga muvofiq tibbiy salbiy ko'rsatmalar mavjud bo'lganda, bolaning yashash joyidagi tibbiyot tashkiloti tomonidan mobil guruhga borishga ruxsat etish to'g'risida xulosa beriladi va unda ota-onasining biri yoki bolaning boshqa yaqin qarindoshi bo'lishi zarurligi ko'rsatiladi.

25. Mobil guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayoni o'ziga xos alohida xususiyatlari inobatga olingan holda tashkil etiladi.

26. O'quv-uslubiy, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan budget mablag'lari hisobidan ta'minlanadi. Minimallashtirilgan alohida kanselyariya anjomlari to'plami bilan esa ota-onalar (qonuniy vakillar) hisobidan ta'minlanadi.

27. Qayta jihozlangan avtobusda bolalar bo'lgan vaqtda uning harakatlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

4-bob. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari

28. Mobil guruhlarda tarbiyalanuvchi, pedagog xodim, ota-ona yoki ularning qonuniy vakillari ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari hisoblanadi.

29. Mobil guruhlar tarbiyalanuvchilarining huquq va majburiyatlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

30. Tegishli kasbiy ma'lumotga, tayyorgarlikka, yuksak ahloqiy va ma'naviy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar mobil guruhlarda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga egadir.

31. Ota-onalar yoki ularning qonuniy vakillari mobil guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayoni bilan tanishish huquqiga ega.

5-bob. Mobil guruhlarning mulki va moliyaviy-xo'jalik faoliyati

32. Mobil guruhlar faoliyati tasdiqlangan sarf-xarajatlar smetasi va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan shtatlar jadvaliga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladi.

33. Mobil guruhlarning mulki qonunda belgilangan tartibda davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga biriktiriladi.

34. Mobil guruhlar pedagog xodimlari, tarbiyachi yordamchilari va haydovchilarining ish haqi davlat maktabgacha ta'lim muassasalari uchun belgilangan tartibda to'lanadi.

6-bob. Yakunlovchi qoida

35. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda o'rnatilgan tartibda javobgar bo'ladilar

### **MTV — avtobuslarda tashkil etilgan mobil maktabgacha guruhlar loyihasi to'g'risida**

Maktabgacha ta'lim vazirligi mobil maktabgacha guruhlar to'g'risida ma'lumot berdi. Maxsus avtobuslar maktabgacha tashkilotlarni qurish qiyin bo'lgan murakkab sharoitli joylarga qatnaydi.

O'zbekiston Maktabgacha ta'lim vazirligi (MTV) 2019/2020 o'quv yilidan qayta jihozlangan Isuzu HC 40 avtobuslari bazasida amalga oshiriladigan mobil maktabgacha tashkilotlar loyihasi haqida ma'lum qildi. Eslatib o'tamiz, ta'limning muqobil shakllarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha qaror loyihasi 30 iyul kuni jamoatchilik muhokamasi uchun e'lon qilingan edi. Mobil guruhlar maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan 3–7 yoshdagi bolalarni qabul qilish rejalashtirilmoqda.

Xabarda qayd etilishicha, mamlakatning olis tumanlarida istiqomat qiluvchi fuqarolar tez-tez maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) yo'qligidan shikoyat qilib turadi. Vazirlik byudjeti cheklangani bois MTTlar ochish uchun bolalar soni ko'proq bo'lgan joylarni tanlashga to'g'ri keldi. Ishchi guruhlar tahlillari hududlarda binolar ajratish muammoni hal qilmaydi.

«Shunday tumanlar borki, u yerlarda uylar bir-biridan uzoqda joylashgan. Statsionar nuqta faqatgina 3 km radiusdagi bolalarni qamrab olishga imkon beradi, bu — juda kam. Bundan tashqari, ota-onalarga farzandlarini har kuni MTTga olib borish qiyin, axir har kimda ham transport bor emas. Boshqa muammo shundaki, tog'li hududlarda zarur kommunikatsiyalarni joylashtirish imkonsiz. Albatta, MTV bolalar isitish, suv va kanalizatsiya bo'lmagan joylarda maktabgacha ta'lim tashkilotini ochmaydi», — dedi

Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin.

Shunday qilib, ixtisoslashgan avtobuslar yaqin istiqbolda maktabgacha tashkilotlarni qurish qiyin bo'lgan murakkab sharoitli joylarga maxsus yo'nalish bo'yicha harakatlanadi.

Avtobuslar konditsionerlar, quyosh panellari, biotualetlar, o'yinchoqlar, rivojlantiruvchi va ta'limiy materiallar bilan ta'minlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tajribasi Shvetsiya, Yangi Zelandiya va Hindistonda qo'llanilmoqda, deya qo'shimcha qildi MTV rahbari.

Sayyor MTTlar "yoz - qish" rejimida ishlovchi sovitgichlar, quyosh panellari, hojatxonalar, o'yinchoqlar, rivojlantiruvchi materiallar bilan ta'minlanadi. Shunga ko'ra, kichik aholi punktlarida yashovchi bolalar bilim olishi, mahorat va ko'nikmalarini rivojlantirishi, maktabga tayyorlanib borishi mumkin bo'ladi. Loyihaning boshlang'ich bosqichida respublika bo'ylab 14ta avtobuslar: Toshkent viloyatida ikkita va hududlarda bittadan avtobus ishga tushiriladi", - deydi Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin.

Sayyor MTTlarda ta'lim-tarbiya jarayoni hudud ehtiyojlari va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda 2–3 smenada olib boriladi. Har bir avtobus uchun tarbiyalanuvchilar yashash joyiga yaqin bo'lgan joyda o'yingohlar (qumdon, o'yin maydonchalari va boshqalar) bilan jihozlangan 3tadan turargoh tashkil etiladi. Sayyor MTTlar qisqa muddatli guruhlar uchun mo'ljallangan bo'lib (kuniga ko'pi bilan 3 soat), ovqatlanishni tashkil etish majburiyati nazarda tutilmagan. Loyiha uchun MTTlar mavjud bo'lmaganligi sababli bolalar maktabgacha ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'la olmayotgan hududlar tanlab olindi. Sayyor MTTlar olis qishloqlarda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish muammosini tezkor hal qilish imkoniyatini yaratadi.

"Barcha mashg'ulotlar o'yin tarzida o'tkaziladi. Mashg'ulotlar chog'ida avtobus harakatda bo'lmasligi bolalar lat yeyishi ehtimolini to'la bartaraf etadi. Mobil MTT maxsus turargohga yetib kelgach bolalarga qulay sharoitni ta'minlash uchun xodimlar mebellarni tashqariga chiqarib tent yordamida shiypon o'rnatiladi. Tarbiyalanuvchilar vaqtning asosiy qismini ochiq havoda o'tkazadilar va bunday yondashuv Finlyandiyada o'zini oqlagan. Kuchli sovuq yoki issiq bo'lgan taqdirda mashg'ulotlar avtobus ichiga ko'chiriladi.

Bu loyihaga shahar o'lchovlari bilan baho berish mumkin emas. Shahar aholisi jamoat transporti va talab darajasidagi infratuzilma mavjud bo'lgan sharoitda yashaydi. Biz chekka qishloqlar aholisi bilan uchrashganimizda, ulardan farzandlari maktabgacha ta'lim olishi uchun sharoit yaratib berish bo'yicha so'rovlarni ko'p eshitamiz. Ular ham farzandlari ilk yoshidanoq ta'lim olishi va rivojlanishini istaydilar. Vazirligimiz ularni mana shunday imkoniyat bilan ta'minlash uchun barcha harakatlarni amalga oshiradi", – deydi Maktabgacha ta'lim vaziri Agrippina Shin.

Loyihaning sinov bosqichi uchun 14ta tumanda 42ta maydonchalar belgilab olindi:

Andijon viloyati - Andijon tumani

Buxoro viloyati - Qorako'l tumani

Jizzax viloyati - Baxmal tumani

Qashqadaryo viloyati - Chiroqchi tumani

Namangan viloyati - Yangiqo'rg'on tumani

Navoiy viloyati - Nurota tumani

Samarqand viloyati - Urgut tumani

Surxondaryo viloyati - Qumqo'rg'on tumani

Sirdaryo viloyati - Boyovut tumani

Toshkent viloyati - Ohangaron, Yangiyo'l tumanlari

Farg'ona viloyati - Uchko'prik tumani

Xorazm viloyati - Hazorasp tumani

Qoraqalpog'iston Respublikasi - Ellikqal'a tumani.





I-

### **BOB yuzasidan xulosa**

1-Prezidentimiz qarori bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror maktabgacha ta'lim tizimining ahamiyatlilik darajasini oshirdi hamda tizimni isloh qilishda tamal toshi vaifasini bajardi;

2-"Davlat talablari","Maktabgacha ta'lim to'g'risida nizom", hamda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun hujjatlari ta'lim tizimidagi uyg'unlikni va integratsiyani ta'minlashga hamda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda asosiy me'yori hujjat vazifasini o'tab kelmoqda;

3-Maktabgacha ta'lim Vazirligining tashkil etilishi,ushbu sohada yagona davlat siyosatini ishlab chiqish,bolalarning har tomonlama rivoj topishlari uchun sharoit yaratish,raqobatbardosh davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlar tarmog'ini kengaytirish,innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy qilish,maktabgacha ta'lim tizimida zamonaviy pedagog kadrlar tizimini yaratish va boshqa tadbirlarning taraqqiy etishiga zamin yaratmoqda

4-Maktabgacha ta'lim Vazirligi to'g'risida Nizom va "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror"Maktabgacha ta'lim vazirligi"ning tashkil etilishida asos vazifasini bajardi;

**5-Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lmoqda;**

6-Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan "Davlat standarti" barcha ta'limiy va tarbiyaviy me'yorlar ya'ni "Davlat talablari", "Ilk qadam o'quv dasturi" da ko'zda tutilgan jihatlarni o'z ichiga qamrab oldi.

**7. MTV — avtobuslarda tashkil etilgan mobil maktabgacha guruhlar loyihasi to'g'risida**

Maktabgacha ta'lim vazirligi mobil maktabgacha guruhlar to'g'risida ma'lumot berdi. Maxsus avtobuslar maktabgacha tashkilotlarni qurish qiyin bo'lgan murakkab sharoitli joylarga qatnaydi.

## **II.BOB MOBIL MAKTABGACHA TA'LIM XIZMATLARINI KO'RSATISH TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA TADBIRLARI**

O'zbekistonda mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish kengaytiriladi. Vazirlar Mahkamasining "Mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror loyihasi e'lon qilindi.

Qayd etilishicha, maktabgacha ta'limning muqobil shakllari, jumladan zamonaviy talablarga javob beradigan avtobuslar bazasida mobil maktabgacha ta'lim guruhlarini tashkil etish bo'yicha dastlabki loyihaning asosiy maqsadi – aholiga, asosan, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi past bo'lgan joylarda qulay maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish.

Tajriba-sinov doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha mobil guruhlar bazasidagi 93 ta guruhda 1 556 nafar bolaga maktabgacha ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatilgan. Bundan tashqari, 2020 yil oxiriga kelib respublikada bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish 60,9 foizni tashkil etdi. Ayni vaqtda respublika bo'yicha maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalarning umumiy soni 1 093 240 nafarni tashkil etmoqda. "Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuningdek, dastlabki loyihani o'rganish natijasida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan hozirgi zamon

talablariga javob beradigan avtobuslar negizida mobil guruhlar loyihasini kengaytirish bo'yicha loyiha ishlab chiqildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur mobil guruhlar maktabgacha ta'lim xizmatlari deyarli mavjud bo'lmagan olis hududlarda tegishli bir yo'nalish bo'ylab harakat qiladi.

Maktabgacha ta'lim jarayoni sifatini oshirish maqsadida bitta avtobusda xizmat ko'rsatiladigan bolalar o'yin maydonchalari sonini 3 tadan 2 tagacha qisqartirish zarur. Bu moliyaviy mablag'lar sarfini kamaytirishga va yonilg'i xarajatlarini qisqartirishga olib keladi", – deyiladi hujjatda. Ta'kidlanishicha, ushbu loyiha qabul qilinishi olis hududda yashab kelayotgan maktabgacha ta'lim yoshdagi 4704 nafar bolalarni qo'shimcha ravishda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishga imkon beradi. Loyiha bilan maktabgacha ta'lim mobil guruhlar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanishi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat hokimliklariga qayta jihozlangan avtobuslar negizida mobil guruhlar tashkil etish, shuningdek, mobil guruhlar uchun yer uchastkalari, maydonlar ajratish va tayyorlash bo'yicha tegishli choralar ko'rish vazifasi topshirilmoqda. Qarorda Ichki ishlar vazirligiga davlat raqami belgilari bepul rasmiylashtirilishi, ro'yxatdan o'tkazilishi, ajratilishini ta'minlash, qayta jihozlangan avtobuslarni foydalanishga topshirish bilan bog'liq boshqa tartibni amalga oshirish topshirilgan. Bildirilishicha, ushbu qarorning qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini kengaytirishga, zamonaviy ta'lim dasturlari, pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishga, teng ta'lim olish imkoniyatlarini taqdim etadigan maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Qarorga ko‘ra, 2019—2020-o‘quv yilidan boshlab, maktabgacha ta’lim mobil guruhlari tajriba tariqasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar ayrim tumanlarida, qayta jihozlangan ISUZU HC 40 avtobuslarida tashkil etiladi.

Mobil guruhning asosiy vazifalaridan biri maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalarning har tomonlama yetuk, intellektual kamol topishiga sharoit yaratishdan iborat.

Mobil guruhlarga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan, maktabgacha ta’lim muassasalariga bormaydigan bolalar qabul qilinadi.

#### **Qabul uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:**

- ariza;
- ota-onaning pasporti nusxasi;
- bolaning tug‘ilganlik guvohnomasi nusxasi;
- bolaning 2 dona fotosurati;
- bolaning salomatligi to‘g‘risida tibbiy xulosa.

Mobil guruhlarda xizmatlar bepul ko‘rsatiladi. Bunda, ovqatlantirish majburiy emas, ta’lim bir kunda 3—4 soatni tashkil etadi.

## 2.1 Mobil maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan hududlar

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-sentabrdagi 786-son qaroriga

1-ILOVA

Maktabgacha ta'lim mobil guruhlarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov loyihasi amalga oshiriladigan Qoraqalpog'iston Respublikasi va respublika viloyatlari tumanlarining

### RO'YXATI

|                               | Tumanlar             | Mobil guruhlari<br>biriktiriladigan davlat<br>maktabgacha ta’lim<br>muassasalari raqami | Mobil guruhlari tashkil<br>etiladigan joylar | Guruhlar<br>soni |
|-------------------------------|----------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------|------------------|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi |                      |                                                                                         |                                              |                  |
|                               | Ellikqal’a<br>tumani | 5-sonli                                                                                 | Dumanqal’a MFY                               | 3                |
|                               |                      |                                                                                         | Kichik Guldursun MFY                         | 3                |
|                               |                      |                                                                                         | Saxteyn MFY                                  | 3                |
| Andijon viloyati              |                      |                                                                                         |                                              |                  |
|                               | Andijon<br>tumani    | 35-sonli                                                                                | Chovqandaryo MFY                             | 3                |
|                               |                      |                                                                                         | Chilon MFY                                   | 3                |

|                      |          |  |                  |   |
|----------------------|----------|--|------------------|---|
|                      |          |  | Roxat MFY        | 3 |
| Buxoro viloyati      |          |  |                  |   |
| Qorakoʻl tumani      | 21-sonli |  | Shoʻrobot MFY    | 3 |
|                      |          |  | Quvvacha MFY     | 3 |
|                      |          |  | Yangi zamon MFY  | 3 |
| Jizzax viloyati      |          |  |                  |   |
| Baxmal tumani        | 2-sonli  |  | Baxmal MFY       | 3 |
|                      |          |  | Muzbuloq MFY     | 3 |
|                      |          |  | Sangzor MFY      | 3 |
| Qashqadaryo viloyati |          |  |                  |   |
| Chiroqchi tumani     | 13-sonli |  | Naymansaroy MFY  | 3 |
|                      |          |  | Xoʻjabod MFY     | 3 |
|                      |          |  | Shoʻrquduq MFY   | 3 |
| Kasbi tumani         | 12-sonli |  | Komilon MFY      | 3 |
| Muborak tumani       | 1-sonli  |  | Amir Temur MFY   | 3 |
| Navoiy viloyati      |          |  |                  |   |
| Nurota tumani        | 1-sonli  |  | Yangi hayot MFY  | 3 |
|                      |          |  | Haydorobod MFY   | 3 |
|                      |          |  | Jarma MFY        | 3 |
| Namangan viloyati    |          |  |                  |   |
| Yangiqoʻrgʻon tumani | 10-sonli |  | Mugʻol MFY       | 3 |
|                      |          |  | Kandiyen MFY     | 3 |
|                      |          |  | Rovot MFY        | 3 |
| Samarqand viloyati   |          |  |                  |   |
| Urgut tumani         | 42-sonli |  | Joʻroptepa MFY   | 3 |
|                      |          |  | Doʻstlik MFY     | 3 |
|                      |          |  | Murodqishloq MFY | 3 |

| Sirdaryo viloyati    |                    |          |                  |     |
|----------------------|--------------------|----------|------------------|-----|
| 1.                   | Boyovut tumani     | 13-sonli | Tinchlik MFY     | 3   |
|                      |                    |          | Sovotobod MFY    | 3   |
|                      |                    |          | Darvozakir MFY   | 3   |
| Surxondaryo viloyati |                    |          |                  |     |
| 2.                   | Qumqo‘rg‘on tumani | 1-sonli  | To‘g‘on MFY      | 3   |
|                      |                    |          | Paxtaobod MFY    | 3   |
|                      |                    |          | Elobod MFY       | 3   |
| Farg‘ona viloyati    |                    |          |                  |     |
| 3.                   | Uchko‘prik tumani  | 15-sonli | To‘qsonqovun MFY | 3   |
|                      |                    |          | Yo‘lgunzor MFY   | 3   |
|                      |                    |          | To‘rvoq MFY      | 3   |
| Xorazm viloyati      |                    |          |                  |     |
| 4.                   | Xozarasp tumani    | 26-sonli | Karvak MFY       | 3   |
|                      |                    |          | Qirtepa MFY      | 3   |
|                      |                    |          | Oxunboboyev MFY  | 3   |
| Toshkent viloyati    |                    |          |                  |     |
| 5.                   | Ohangaron tumani   | 9-sonli  | Qoraso‘veka MFY  | 3   |
|                      |                    |          | Sanam MFY        | 3   |
|                      |                    |          | Cho‘vuldoq MFY   | 3   |
| 6.                   | Yangiyo‘l tumani   | 11-sonli | Dehqonobod MFY   | 3   |
|                      |                    |          | Do‘stlik MFY     | 3   |
|                      |                    |          | Iftixor MFY      | 3   |
|                      | Jami               |          |                  | 132 |

## 2.2 Maktabgacha ta'lim mobil guruhlarni jihozlash normativlari

### Maktabgacha ta'lim mobil guruhlarni jihozlash

#### NORMATIVLARI

| /r                      | Nomi                                    | O'lchov<br>birligi | Miqdori (soni)                            |
|-------------------------|-----------------------------------------|--------------------|-------------------------------------------|
| <b>I. Mebel</b>         |                                         |                    |                                           |
| .                       | Bolalar stoli — 4 o'rinli               | dona               | Guruhdagi bolalar<br>sonidan kelib chiqib |
| .                       | Bolalar stuli                           | dona               | har bir bolaga                            |
| .                       | Tarbiyachi uchun stol (moslashtirilgan) | dona               | 1                                         |
| .                       | Tarbiyachi uchun stul (moslashtirilgan) | dona               | 1                                         |
| .                       | O'quv materiallar uchun shkaf           | dona               | 1                                         |
| .                       | O'yinchoqlar uchun shkaf                | dona               | 1                                         |
| .                       | Magnit-marker doskasi                   | dona               | 1                                         |
| <b>II. O'yinchoqlar</b> |                                         |                    |                                           |
| .                       | Qo'g'irchoqlar (ko'zi yopiladigan)      | dona               | 2                                         |
|                         | Mashinalar (turli xil)                  | to'plam            | 1                                         |

|    |                                        |         |    |
|----|----------------------------------------|---------|----|
| .  |                                        |         |    |
| .  | Uy hayvonlari va ularning bolalari     | to‘plam | 4  |
| .  | Yovvoyi xayvonlar va ularning bolalari | to‘plam | 4  |
| .  | Bolalar idishlari to‘plami             | to‘plam | 2  |
| .  | “Lego” konstruktori                    | to‘plam | 4  |
| .  | Bolalar lotosi                         | to‘plam | 2  |
| .  | “Dorixona” to‘plami                    | to‘plam | 2  |
| .  | Qurilish asboblari to‘plami            | to‘plam | 2  |
| 0. | Pazllar                                | to‘plam | 20 |
| 1. | Mozaikalar                             | to‘plam | 4  |

### III. Didaktik materiallar

|   |                                           |         |                |
|---|-------------------------------------------|---------|----------------|
| . | Hisob tayoqchalari                        | to‘plam | har bir bolaga |
| . | Geometrik shakllar (geometrik mozaika)    | to‘plam | har bir bolaga |
| . | Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun alifbo | dona    | har bir bolaga |
| . | Raqamlar                                  | to‘plam | har bir bolaga |
| . | Yil fasllari tasviri tushirilgan rasmlar  | to‘plam | 1              |

|    |                                                                         |         |                |
|----|-------------------------------------------------------------------------|---------|----------------|
| .  | Uy hayvonlari va ularning bolalari tasviri tushirilgan kartochkalar     | to‘plam | 4              |
| .  | Yovvoyi hayvonlar va ularning bolalari tasviri tushirilgan kartochkalar | to‘plam | 4              |
| .  | Uy parrandalari tasviri tushirilgan kartochkalar                        | to‘plam | 4              |
| .  | Qushlar tavsiri tushirilgan kartochkalar                                | to‘plam | 4              |
| 0. | Sabzavotlar tasviri tushirilgan kartochkalar                            | to‘plam | 4              |
| 1. | Mevalar va reza mevalar tasviri tushirilgan kartochkalar                | to‘plam | 4              |
| 2. | “Hayot xavfsizligi asoslari” kartochkalari                              | to‘plam | 1              |
| 3. | “Kasblar” kartochkalari                                                 | to‘plam | 1              |
| 4. | Xusnixat                                                                | dona    | har bir bolaga |

#### IV. Sport inventarlari

|   |                                   |         |   |
|---|-----------------------------------|---------|---|
| . | Bolalar arg‘amchilari             | dona    | 5 |
| . | Bolalar bouling keglisi           | to‘plam | 2 |
| . | Turli kattalikdagi to‘plar        | dona    | 5 |
| . | Turli hajmdagi chambaraklar       | dona    | 5 |
| . | Uloqtirib tushiriladigan halqalar | dona    | 2 |

#### V. Bolalar adabiyoti

|   |                        |      |   |
|---|------------------------|------|---|
| . | Jahon xalq ertaklari   | dona | 5 |
| . | O‘zbek xalq ertaklari  | dona | 5 |
| . | She’rlar, topishmoqlar | dona | 5 |

**\* bitta avtobus uchun hisoblab chiqilgan.**

## **II. BOB yuzasidan xulasa**

1.Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini kengaytirish, aholiga maktabgacha ta’lim xizmatlari ko’rsatishni tashkil etish, shuningdek, maktabgacha ta’lim va tarbiyaning yangi innovatsion muqobil shakllarini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori ijrosi amalga oshirilmoqda

2. Maktabgacha ta’lim vazirligi mobil maktabgacha guruhlar to’g’risida ma’lumot berdi. Maxsus avtobuslar maktabgacha tashkilotlarni qurish qiyin bo’lgan murakkab sharoitli joylarga qatnashi yo’lga qo’yilmoqda .

3.O‘zbekistonda mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko’rsatish kengaytiriladi

4.Vazirlar Mahkamasining “Mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko’rsatish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaror loyihasi e’lon qilindi.

5. Mobil guruhning asosiy vazifalaridan biri maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalarning har tomonlama yetuk, intellektual kamol topishiga sharoit yaratishdan iborat.

6.Yangi nuqtalarda mobil maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ishga tushirish maktabgacha ta’lim tashkilotlari qamrovida bo’lmagan bolalar qamrovini kengaytirish va rivojlantirishga xizmat qiladi

7. Mobil maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etilgan hududlar maktabgacha ta’lim tashkiloti qurishning imkoni bo’lmaydigan hududlarda amalga oshiriladi . «Shunday tumanlar borki, u yerlarda uylar bir-biridan uzoqda joylashgan. Statsionar nuqta faqatgina 3 km radiusdagi bolalarni qamrab olishga imkon beradi, bu — juda kam. Bundan tashqari, ota-onalarga farzandlarini har kuni MTTga olib borish qiyin, axir har kimda ham transport bor

emas. Boshqa muammo shundaki, tog‘li hududlarda zarur kommunikatsiyalarni joylashtirish imkonsiz. Albatta, MTV bolalar isitish, suv va kanalizatsiya bo‘lmagan joylarda maktabgacha ta’lim tashkilotini ochmaydi», — dedi

Maktabgacha ta’lim vaziri Agrippina Shin.

### **III.BOB MOBIL GURUHLAR BAZASIDA MAKTABGACHA TA’LIM XIZMATLARINI KO’RSATISH BO’YICHA TAJRIBA SINOV LOYIHASINI AMALGA OSHIRISH**

#### **3.1 Pedagogik tajriba sinov natijalarining mohiyati**

Mobil maktabgacha ta’lim guruhlarida ta’lim jarayonini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi mavzusidagi bitiruv malakaviy tajriba sinov ishimni Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani Chambil qishlogi`da amalga oshirdim . Tajriba sinov ishimni o‘tkazishda 179- sonli maktab Oliy toifali jismoniy tarbiya o`qituvchi Muhammadiyev Doston yordam berdi . Chambil qishlog`ining maktabgacha ta’lim tashkilotiga qamrab olinmagan bolalari bilan mobil maktabgacha ta’lim xizmatlarini amalga oshirdim.

Quyidagilar mobil guruhlarining asosiy vazifalari hisoblanadi:ilg‘or xorijiy tajriba inobatga olingan holda, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalarning har tomonlama yetuk, intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

#### **Tajriba sinov vaqtida o`tkazilgan mashg`ulot**

**Mashg’ulot mavzusi: Men va tanam**

**Mashg’ulotlarning maqsadlari:**

**ta’limiy:** inson salomatligi eng oliy qadriyatdir. Bolalarga organizmini tanishtirish orqali ularga o’z salomatligiga e’tiborli bo’lish, tana a’zolarining qanday vazifa bajarilishini tushuntirish.

**tarbiyaviy:** tarbiyalanuvchilarga tana a’zolarini ehtiyot va ularni toza saqlash, gigiyena qoidalari haqida kengroq tushunchalar berish.

**Kerakli jihozlar:** Inson tana a`zolarining suratlari. Inson tana a`zolari bajradigan vazifalar yoritilgan ko`rgazmali materiallar.



### Mashg'ulotning borishi

Bolalar musiqa sadolari ostida xonaga kirib keladi va yarim aylana bo'lib turadilar.

**Tarbiyachi:** - Assalomu alaykum quvnoq bolalar, Salom ona quyosh! Xayrli kun qushlar! Xo'sh bolalar, ya'na kimlar bilan salomlashamiz?

**Bolalar:** - Ona tabiat bilan! (Assalomu alaykum deb bir ovozdan aytishadi.)

**Tarbiyachi:** - Bolalar bugun biz tana a'zolari haqida gaplashamiz. Bilasizlarmi har bir a'zo bir-biri bilan bog'liq. Endi yoninga bir qiz va bir bola keling. Qani, bir-biringizga qaranglar va farqingizni ayting.

**1-bola:** - Men o'g'il bolaman, sochlarim kalta, qora rangda, qoshlarim qalin, bo'yim baland.

**2-bola:** - Men qiz bolaman, sochlarim uzun, ko'zlarim katta-katta.

**Tarbiyachi:** - Endi stolda o'tirgan bolalar ham turib bir-biridagi farqni aytib bersin.

(Bolalar o'zlaridagi farqni bir-birlariga aytishadi).

**Tarbiyachi:** - Tabiatan bo'yimiz har xil, soch ko'zlarimiz rangi turlicha bo'lgani bilan hammamizning tana a'zolarimiz bir xil, shundaymi?

**Bola:-** Shunday.

**Tarbiyachi:** - Hozir men sizlarga tana a'zolarining nomini aytman, sizlar esa men aytgan a'zolari ko'rsatasizlar. Qo'l, oyoq, ko'z, burun, quloq, lab, qosh, tish, kiprik, soch.

(Bolalar tarbiyachi aytgan a'zolari ko'rsatadilar, kim tez harakat qilsa, ana o'sha bola rag'batlantiriladi).

**Tarbiyachi:** - Barakalla, bolajonlar, siz o'z a'zolaringiz haqida yaxshi bilar ekan sizlar. Endi manabu suratga yaxshilab qaranglarchi, rassom akangiz nimani shoshilib unitib qoldirdi ekan?





(Suratda yuz chizilgan, unda lab, quloq, burun, qosh qoldirib ketilgan. Bolalar qaysi a'zo qoldirib ketilganini aytib, unitilgan a'zolarning suratini chizadilar).

**Tarbiyachi:** - Endi sizlar bilan jismoniy daqiqa o'tkazamiz.

### **Jismoniy daqiqa**

**Tarbiyachi:** - Qani, bo'nimizni o'rdakka o'xshab cho'zamiz, qo'llar orqada. Og'zimizni xuddi baliqlardek ochamiz-yopamiz. Qo'l-oyoqlarimizni quyonga o'xshatib sakraymiz.

**Tarbiyachi:** - Mana, mushaklarimizni chiniqtirib oldik. Endi joyimizga o'tirib olamiz va mashg'ulotni davom ettiramiz. Men hozir sizlarga topishmoq aytaman, qani kim birinchi bo'lib javob berarkan?

Ikki onada beshtadan bola, u nima?

**1-bola** – Ikki qo'l va barmoqlar.

**Tarbiyachi:** - Barakalla, qani endi aytinglarchi, qo'llar bizga nima uchun kerak?

**2-bola** – Qo'llar yordamida ovqat yeymiz, o'yinchoq o'ynaymiz, rasm chizamiz.

**Tarbiyachi:** - Ko'z eng qimmat baho boyligimizdir. U bilan atrofning go'zalligini ko'ramiz. Aytinglarchi ko'zlarimizning eng sodiq do'stlari nima?

**Bolalar:** - Kipriklar, qoshlar.

**Tarbiyachi:** - To'g'ri, qosh va kipriklar ko'zimizga chang kirishidan himoya qiladi. Ammo ko'zimizni kir qo'llar bilan ushlab bo'lmaydi.

**Tarbiyachi:** - Bitta o'ziga 32 qorovul, qani gap nima haqida ketyapti, kim aytadi?

**3-bola:** - Opajon, og'zimizdagi tilga 32 tish qorovul, to'g'ri topdimmi?

**Tarbiyachi:** - Ziyrak ekansan, savolga bir zumda javob topding. Bilasizlarmi, tish bizga ovqatlarni chaynashimiz uchun kerak bo'ladi. Faqat ularni har kuni chayqab, tishlarimiz ozodaligiga e'tiborli bo'lishimiz kerak.

**Bola:** - Bog'cha opa, men tishlarimni har kuni ikki marta tozalayman.

**Tarbiyachi:** - Sen juda to'g'ri qilarkansan, hammangiz ham undan o'rnak olinglar. Bolajonlar, bugun qaysi a'zo haqida gaplashmadik?

**Bola:** - Burun qolib ketdi.

**Tarbiyachi:** - Juda to'g'ri. Burun bizga nafas olishimiz uchun xizmat qiladi. Burun orqali nafas olganimizda organizmimizga havo tozalanib kiradi. Bu esa sog'ligimiz uchun koni foyda. Yana oyijonimiz pishirgan shirin taomlar, issiqqina non, turli gullar hidini ham burun yordamida sezamiz. Biz yana bir muhim a'zo quloq haqida ham gaplashamiz.

**Tarbiyachi:** - Nima deb o'ylaysiz, quloq bizga nima kerak?

**Bola:** - Bir-birimizni eshitish uchun.

**Tarbiyachi:** - Juda to'g'ri. Quloqni ham vaqtida tozalash kerak. Mashg'ulotimizni tana a'zolari haqidagi ertak bilan yakunlaymiz. Bir kuni tana a'zolari bir-biri bilan urushib qolibdi. Oyoqlar o'zaro nimaga biz butun jismni ko'tarishimiz kerak, qani endi bizsiz o'zlarini o'zlari ko'tarib yurishsin debdi. Qo'llar ham nimaga biz butun tanaga xizmat qilar ekanmiz deb o'zlaricha

isyon qilishibdi. Tilham nega men ular uchun taomning mazalimi yoki yo'qligini aniqlab berishim kerak debdi. Ko'z esa nimaga men ularni xavfdan ogoh qilishim kerak ekan deb bosh ko'taribdi. Afsuski, bu ishdan tana xursand bo'lmabdi. Harakatsizlikdan organizm kasallana boshlabdi. Ana shunda qo'l, oyoq va ko'zlar xato qilishganini aniqlashibdi. Ko'rdindizmi bolalar, ahillikda gap ko'p. Agar bir-birimiz bilan inoq, do'st bo'lsak barcha ishlarimiz a'lo bo'ladi.

**Bolalar:** - Xo'p

**Tarbiyachi:** - Unday bo'lsa bugungi mashg'ulotimizni yakunlaymiz. Siz o'z tana azolaringizning vazifalari haqida ma'lumotga ega bo'ldingiz.

### 3.2 Tajriba sinov natijalarining tahlili

Mobil maktabgacha ta'lim guruhlarida ta'lim jarayonini tashkil etish va o'tkazish metodikasi mavzusidagi bitiruv malakaviy tajriba sinov ishim davomida bolalar bilan faolyat turlarida ishladik . Mashg'ulotlar , harakatli o'yinlar amalga oshirdik. Mobil maktabgacha ta'lim guruhlarida ta'lim jarayoni 7.5 yarim soatdan oshmasligi belgilangan. Tajriba sinov 4 soat davomida 20 nafar 4-5 yoshli bolalarda amalga oshirdim . Biz borgan hududda hech

qanday maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud emasligi ota onalarda maktabgacha ta'lim tashkiloti bollar uchun muhimligi haqida tushuncha kam ekanligini biz ko'rdik. Bolalarni uyushtirish va faoliyatimizni boshlash uchun ham ota onalar bilan tushunchalar olib borishga to'g'ri keldi . Erta ta'lim-tarbiya insonning butun umri davomida farovon va baxtli hayot kechirishi uchun mustahkam asos bo'ladi. Shu bilan birga, erta ta'lim-tarbiya bolaning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini birlashtirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim pedagoglari har bir bola uchun maktabgacha ta'lim-tarbiya maqsadlarini amalga oshirishda muhim rol o'ynashligi haqida tushunchalar berdik . Tajriba sinov natijasida bolalarda maktabgacha ta'lim tashkilotiga nisabatan tushuncha , qiziqish uyg'ondi. Ota onalarda ham Mobil maktabgacha ta'lim guruhlarini tashkil etilishi va bolalar qamrovini ta'minlab berishlari kerakligi haqida tushunchaga ega bo'ldilar .

### **III. BOB yuzasidan xulosalar**

1. Mobil maktabgacha ta'limning asosiy vazifalaridan biri maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalarning har tomonlama yetuk, intellektual kamol topishiga sharoit yaratishdan iborat bo'lib tajriba-sinov o'tkazish natijasida mobil maktabgacha ta'lim guruhlarida ta'lim jarayonini tashkil etish va o'tkazishda yangi metodikalarni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.
2. Tajriba sinov natijasida Mobil maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini rivojlantirishga bolalarda maktabgacha ta'lim tashkilotiga nisabatan tushuncha, qiziqish uyg'otishga yordam

beadi . Ota onalarda ham Mobil maktabgacha ta'lim guruhlari tashkil etilishi va bolalar qamrovini ta'minlab berishlari kerakligi haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

## **XULOSALAR**

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limga juda katta e'tibor berilmoqda bundan tashqari mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tajriba sinov loyihasini amalga oshirish ishlari olib borilmoqda va mazkur tizimining rivoji uchun amaliy ishlar bajarilmoqda. Mobil maktabgacha guruhlar asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlash

ota-onalarga bolalarning ilk rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish masalasida maslahat va uslubiy yordam ko'rsatish;

Mobil maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini rivojlantirish

Shu kungacha Mobil maktabgacha guruhlarda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Tajriba-sinov doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha mobil guruhlar bazasidagi 93 ta guruhda 1556 nafar bolaga maktabgacha ta’lim-tarbiya xizmatlari ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, 2020 yil oxiriga kelib respublikada bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish 60,9 foizni tashkil etdi. Ayni vaqtda respublika bo‘yicha maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalarning umumiy soni 1 093 240 nafarni tashkil etmoqda. “Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuningdek, dastlabki loyihani o‘rganish natijasida Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan hozirgi zamon talablariga javob beradigan avtobuslar negizida mobil guruhlar loyihasini kengaytirish bo‘yicha loyiha ishlab chiqildi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur mobil guruhlar maktabgacha ta’lim xizmatlari deyarli mavjud bo‘lmagan olis hududlarda tegishli bir yo‘nalish bo‘ylab harakat qiladi.

-MTT ning oilaviy avtobuslardagi mobil, dengiz konteynerlari asosidagi modul, shuningdek, to‘liq kunli bo‘lmagan muqobil shakllari joriy etildi. 2019-yilning ikkinchi yarmida “Aqlvoy” loyihasining 16 avtobusi bilan chekka va borish qiyin bo‘lgan hududlardagi 2 ming bola maktabgacha ta’lim bilan qamrab olindi.

Shuningdek, Maktabgacha ta’lim vazirligi 2020 yil 1 apreldan «Bolajon» kanalida bog‘cha bolalari uchun ingliz tili, arifmetika, ertalabki badantarbiya va logopedik mashg‘ulotlardan iborat ta’limiy teleloyihani ishga tushirdi. Maktabgacha ta’lim vazirligi va MTRK bilan xamkorlikda bog‘cha bolalari karantin davridagi vaqtlarini unumli o‘tkazishga ko‘mak berish uchun «onlayn bog‘cha»-maktabgacha ta’lim mashg‘ulotlar tele loyihasini boshladi.

Mazkur loyiha maktabgacha ta’lim tizimining "Ilk qadam» davlat ta’lim standarti asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan. Unga ko‘ra endi ota-onalar bog‘cha mashg‘ulotlarini o‘z farzandlari bilan uyda «Ilk qadam» va «Aqlvoy» nomli mashg‘ulotlarini tele ekran qarshisida bajarishlari mumkin bo‘ladi.

Xususan, 1 sinfga tayyorgarlik ko‘rayotgan bolalar ijodkorlar tomonidan davlat dasturi asosida tayyorlagan «Aqlvoy» nomli maktabga tayyorlov mashg‘ulotlarini uyda bajara oladilar.

Shuningdek, «Ilk qadam» dasturi doirasida 3–6 yoshlik bolalar «Bardam bolajon», «Mental arifmetika», «Mohir qo‘llar», «Luckin English», «Bolalar oshxonasi», «Mening diyorum», «Rovon nutq» kabi mashg‘ulotlarining jajji ishtrokchisiga aylanishlari mumkin

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mobil maktabgacha ta’lim tizimi jadal rivojlanmoqda.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent. 2016-yil .
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi farmoni.
3. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" Toshkent. 2018-yil.
4. "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" Toshkent. 2019-yil.
5. Maktabgacha ta'lim mobil guruhlar faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM
6. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. 2019-yil.
7. "Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning konseptual asoslari" o'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2018.
8. "Ilk qadam" davlat dasturi.
9. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Qayumova, M.N.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika" Darslik. Toshkent. 2019 yil.
10. Begmatova N.X., Aripov M. Multimediya texnologiyasidan foydalanish. -T.: 2012 .
11. Bekmatova O.A. va boshqalar «Quvnoq harflar». -T.; "O'qituvchi" 2000.
12. Vaxobova F.N., Rasulova M. Sh. va boshqalar "Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari".-T.; 2008.
13. Gerbova V. Planirovanie raboty po razvitie rechi i oznakomlenie s xudojestvennoy literaturoy // Doshkolnoe vospitanie. 1999. №3. S. 19-22.
14. Jalolova G. "Bolalarni maktabga tayyorlashda noan'anaviy o'yinlardan foydalanish".- T.:2004.
15. Mavlonova R., To'raeva O, Holiqberdiev K. Pedagogika T: O'qituvchi, 2001y.
16. Munavvarov A. Pedagogika. T: O'qituvchi, 1996, 26b.
17. SH. Sodiqova "Maktabgacha pedagogika" Toshkent. 2013 yil

### **Elektron ta'lim resurslari:**

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www. pedagog. uz)
3. [www. Ziyonet. uz](http://www. Ziyonet. uz)

4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

5. [tdpu-INTERNET. Pe](http://tdpu-INTERNET.Pe)